



Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Buxoro viloyati doimiy aholisi soni 2021- yil 1 aprel holatiga 1951,9 ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan 4,8 ming kishiga yoki 0,2 % ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 716,9 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 36,7 %), qishloq aholisi soni 1235,0 ming kishini (63,3 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2021- yil yanvar-mart

- Aholi soni **4,8 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **8,1 ming nafarni** tashkil etdi.
- **2,0 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **3,9 mingta nikoh** va **0,5 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Buxoro viloyatidagi demografik ko'rsatkichlar

(2021- yil yanvar-mart oylarida)



Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

	2020- yil	2021- yil*	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	1 929,2	1951,9	101,2
Buxoro sh.	280,7	282,0	100,5
Kogon sh.	61,2	61,7	100,8
tumanlar:			
Olot	99,2	100,3	101,1
Buxoro	166,8	169,5	101,6
Vobkent	139,9	141,6	101,2
G'ijduvon	304,2	307,8	101,2
Kogon	78,4	79,7	101,7
Qorako'l	164,2	165,4	100,7
Qorovulbozor	18,3	18,6	101,6
Peshku	122,9	124,9	101,6
Romitan	141,6	144,2	101,8
Jondor	174,4	176,9	101,4
Shofirkon	177,4	179,3	101,1


*) dastlabki ma'lumot

Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1 aprel holatiga eng ko'p aholi soni G'ijduvon tumanida 307,8 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 15,8 % ni) va Buxoro shahrida 282,0 ming kishini (14,4 %), aksincha eng kam aholi soni Kogon shahrida 61,7 ming kishi (3,2 %) va Qorovulbozor tumanida 18,6 ming kishini (1,0 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2020- yilning mos davriga nisbatan Romitan tumanida 1,8 %ni, Kogon tumanida 1,7 %ni, Qorovulbozor tumanida, Peshku tumanida va Buxoro tumanida 1,6 %ni, Jondor tumanida 1,4 %ni, Vobkent tumanida 1,2 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati Kogon shahrida 0,8 %ni, Qorako'l tumanida 0,7 %ni va Buxoro shahrida 0,5 %ni tashkil etdi.

Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining shahar va qishloqlarga bo'linishi (2021- yil 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)




Demografik holat

Jinsi bo'yicha doimiy aholi sonining bo'linishi (2021- yil 1 aprel holatiga, ming kishi dastlabki ma'lumot)

	erkak	ayol
Buxoro viloyati	977,9	974,0
Buxoro sh.	140,1	141,9
Kogon sh.	30,1	31,6
<i>tumanlar:</i>		
Olot	50,2	50,1
Buxoro	85,0	84,5
Vobkent	71,2	70,4
G'ijduvon	157,3	150,5
Kogon	39,5	40,2
Qorako'l	81,8	83,6
Qorovulbozor	9,2	9,4
Peshku	62,5	62,4
Romitan	73,0	71,2
Jondor	87,6	89,3
Shofirkon	90,4	88,9

Hududlar kesimida aholi zichligi (2021- yil 1 aprel holatiga, 1 kv kmga to'g'ri keladigan aholi)



Demografik holat

Tug'ilish. 2021- yilning yanvar-mart oylarida 8,1 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 16,9 promilleni tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega ko'paygan (2020- yilning yanvar-mart oylarida 16,8 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2020- yilning mos davriga nisbatan Qorovulbozor tumanida (14,5 promilledan 17,5 promillega), Kogon shahrida (16,2 promilledan 19,0 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli kamayish G'ijduvon tumanida (18,3 promilledan 18,1 promillega), Peshku tumanida (16,4 promilledan 16,0 promillega), Olot tumanida (17,2 promilledan 16,4 promillega), Vobkent tumanida (17,3 promilledan 16,4 promillega) va Buxoro shahrida (18,3 promilledan 16,9 promillega) kuzatildi.


Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Qiz bolalar:
3,9
ming nafar

O'g'il bolalar:
4,2
ming nafar

Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-mart)



Demografik holat

Buxoro viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi (yanvar-mart)

	2020- y.	2021- y.	O'sish sur'ati % da
Buxoro viloyati	8028	8101	100,9
Buxoro sh.	1273	1173	92,1
Kogon sh.	247	288	116,6
<i>tumanlar:</i>			
Olot	423	406	96,0
Buxoro	563	600	106,6
Vobkent	602	571	94,9
G'ijduvon	1381	1371	99,3
Kogon	332	369	111,1
Qorako'l	726	724	99,7
Qorovulbozor	66	80	121,2
Peshku	501	492	98,2
Romitan	576	611	106,1
Jondor	641	686	107,0
Shofirkon	697	730	104,7

Demografik holat

Vafot etganlar. 2021- yilning yanvar-mart oylarida 2,0 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi, 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,4 promillega ko'paygan (2020- yilning yanvar-mart oylarida 3,9 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2020- yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada Olot tumanida (3,4 promilledan 5,2 promillega), Peshku tumanida (3,2 promilledan 4,2 promillega), Kogon shahrida (5,6 promilledan 6,3 promillega), Qorako'l tumanida (3,8 promilledan 4,3 promillega) sezilarli darajada o'sish holati kuzatildi.


Vafot etganlar



Erkaklar:
0,8 ming
kishi

Ayollar:
1,2 ming
kishi

**Hududlar kesimida o'lganlar soni va koeffitsienti
(2021- yil yanvar-matr)**



Demografik holat

Buxoro viloyati bo'yicha o'lganlar soni, kishi (yanvar-mart)


	2020- y.	2021- y.	O'sish sur'ati % da
Buxoro viloyati	1890	2044	108,1
Buxoro sh.	305	332	108,9
Kogon sh.	85	96	112,9
<i>tumanlar:</i>			
Olot	83	128	154,2
Buxoro	159	167	105,0
Vobkent	134	143	106,7
G'ijduvon	318	317	99,7
Kogon	92	96	104,3
Qorako'l	153	175	114,4
Qorovulbozor	11	6	54,5
Peshku	98	128	130,6
Romitan	127	122	96,1
Jondor	154	156	101,3
Shofirkon	171	178	104,1

Demografik holat

2021- yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,6 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 9,6 %i o'simtalardan, 6,4 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,1 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,5 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 0,5 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,3 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 83 nafarni tashkil etib, ularning 50,6 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 16,9 %i tug'ma anomaliyalardan, 13,3 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 8,4 %i yuqumli parazitar kasalliklardan 4,8 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan va 6,0 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2021- yil yanvar-mart

Tabiiy o'sish. 2021- yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 6,1 ming kishini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan tengligi kuzatildi. (2020- yilning yanvar-mart oylarida 6,1 ming kishi bo'lgan)



Tabiiy o'sish:
6,1 ming kishi

Nikoh.

2021- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 3,9 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 8,1 promilleni tashkil etdi.


Tuzilgan nikohlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'ati Shofirkon tumani (142,8 %), Buxoro tumani (139,9 %) va Kogon tumani (127,4 %) to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar.

2021- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,5 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralganlik koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.


Ajrimlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Shofirkon tumani (160,7 %) va G'ijduvon tumani (149,2 %) to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-mart)



Demografik holat

Hududlar kesimida nikohdan ajralganlar soni va koeffitsienti (2021- yil yanvar-mart)



Buxoro viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajrimlar soni, birlik (yanvar-mart)

	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2020 y.	2021 y.	O'sish sur'ati % da	2020 y.	2021 y.	O'sish sur'ati % da
Buxoro viloyati	3326	3895	117,1	465	500	107,5
Buxoro sh.	512	628	122,7	127	129	101,6
Kogon sh.	112	137	122,3	32	25	78,1
<i>tumanlar:</i>						
Olot	163	184	112,9	14	15	107,1
Buxoro	268	375	139,9	52	46	88,5
Vobkent	245	256	104,5	16	20	125,0
G'ijduvon	462	518	112,1	61	91	149,2
Kogon	117	149	127,4	25	25	100,0
Qorako'l	307	334	108,8	30	26	86,7
Qorovulbozor	34	27	79,4	4	3	75,0
Peshku	204	254	124,5	15	21	140,0
Romitan	281	270	96,1	35	21	60,0
Jondor	357	386	108,1	26	33	126,9
Shofirkon	264	377	142,8	28	45	160,7

Migratsiya

2021- yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 2,2 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 3,4 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus 1,2 ming kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 1,0 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2020- yil yanvar-mart	2021- yil yanvar-mart
Ko'chib kelganlar	1,3	2,2
Ko'chib ketganlar	2,3	3,4
Migratsiya saldosini	-1,0	-1,2

Migratsiya saldosining yuqori darajasi G'ijduvon tumanida (minus 430 kishi) va Shofirkon tumanida (minus 255 kishi) va qayd etildi.

